

## Ellikqala tumani tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar olib borish.

Seydullaeva Gozzal Bekniyazovna

QMU “Geodeziya va geoinformatika” mutaxassisligi magistranti

### ABSTRACT

Ellikqala tumanining tabiiy yaylov va pichanzorlaridagi ósimliklar dunyosini órganish, ósimliklar dunyosi obyektlarining davlat kadasatrini yuritish uchun ma’lumotlar bazasini yaratish maqsadida ótkazilgan geobotanik tadqiqot ishlari natijalarini taqdim etamiz.

### ARTICLE INFO

Received: 1<sup>st</sup> March 2023

Revised: 1<sup>st</sup> April 2023

Accepted: 6<sup>th</sup> May 2023

**KEYWORDS:** tabiiy yaylov, ósimliklar dunyosi, massiv, yaylov turlari.

### Kirish

Ózbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi Mamuriy- hududiy birliklar chegeralarini belgilash, yer resuslarini xatlovdan ótkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni ótkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar tógrisida”gi 299-sonli qarori asosida Qoraqalpog’iston Respublikasi Ellikqala tumanining tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar olib borilganini aytib ótish joiz.

Ellikqala tumanining umumiy maydoni 541920 gektar bólib, shundan 357487 gektari yaylov va pichanzor yerlari hisoblanadi. Tadqiqotlar 1:10000 masshtabdagi xarita va tumanning ortofotoplanlaridan foydalangan holda olib borilgan. Yaylovlarning mahsuldorligi haqidagi ma’lumotlar davlat yer kadastrini yuritishda, yerlarning meyoriy qiymat bahosini hisoblashda, shuningdek xójalik ishki yer tuzish loyihalarini ishlab chiqarishda muhim hisoblanadi.

Geobotanik tadqiqot ishlarini bajarish uchun tegishli mutaxassislardan iborat ishchi guruh tashkil etiladi va ular tamonidan ishlar quyidagi boshqichda amalga oshiriladi.

1. Tayyorgarlik ishlari;
2. Dala kuzatuv ishlari;
3. Kameral ishlar: geobotanik xaritalar tuzish, yaylov ósimliklari geobotanik turlari eksplikatsiyasini tuzish, elektron raqamli xaritalarda “Ósimlik dunyosi obyektlari davlat kadastrini”ga oid ma’lumotlarni shakllantirish, bajarilgan ishlar bóyicha hisobot tuzish va yig’ma jild tayyorlash.

### Asosiy qism

“Ózdaverloyiha” davlat ilimiy loyihalash institutining “QRerloyiha” bólinmasi mutahassislari tamonidan tumandagi tabiiy yaylov va pichanzorlardagi ósimliklar dunyosini órganish ishlari 90-yillardan keyin bajarilmaganligini hisobga olib, ósimliklar dunyosi obyektlarining davlat kadastrini yuritish uchun ma’lumotlar bazasini yaratishda izlanishlar olib borildi. Geobotanik izlanishlarni ótkazishda tumanning 1:10 000 va 1:25 000 miqyosdagi xaritalardan, topoxaritalardan, ortofotoplanlardan hamda eng sóngi aerokosmik suratlardan foydalanildi.

**Ósimliklari.** Chorva mollari yeydigan barcha yaylov ósimliklari malumki u yoki bu xususiyatga ega, aktiv moddalari: saponin, fitontsidlar, glikozidlar, gluukoza va dubil moddalari bólgan ósimliklar yeydigan ozuqabop ósimliklarga kiradi. Ushbu aktiv moddalar yuqori va kóp bólgan ósimliklar dorivor yoki zaharli hisoblanadi. Tumanda butalar (oq saksovul, quyon-suyak, qizil qandim), yarim butalar (shuvoq), kóp yillik ót ósimliklari (kovrak, rang, iloq, yantoq, yaltirbosh), zararli va zaharli ósimliklar (isiriq, uchma)i uchraydi.

**Yaylovlarning madaniy-texnik holati**

Yaylovlar xillari raqami	Yer maydoni	Butazorlar	Kemiruvchilar uyasi	Eroziya	Yollar	Toptalgan yerlar	Qoqqumlar	Shórxoqlar	Zararli ósimliklar	Zaharli ósimliklar
1	22333,3	714,7	402	603	424,3	223,3	0	12,5	6,7	2,2
3	33646	1076,7	605,6	908,4	639,3	336,5	0	18,8	101,1	3,4
8	13105,4	419,4	235,9	353,8	249	131,1	0	7,3	3,9	1,3
119	52527,1	1680,9	946,6	1418,2	998	525,3	0	29,4	15,8	5,3
125	73021	2336,7	1314,4	1971,6	1387,4	730,2	0	40,9	21,9	7,3
128	1257,4	40,2	22,6	33,9	23,9	12,6	0	0,7	0,4	0,1
47	141012,6	4512,4	2538,2	3807,3	2679,2	1410,1	1	79	42,3	14,1
48	1719,4	55	30,9	46,4	32,7	17,2	2	1	0,5	0,2
52	333,4	10,7	6	9	6,3	3,3	3	0,2	0,1	0
79	1111,1	35,6	20	30	21,1	11,1	4	0,6	0,3	0,1
80	1524,2	48,8	27,4	41,2	29	15,2	5	0,9	0,5	0,2
83	1226,3	39,2	22,1	33,1	23,3	12,3	6	0,7	0,4	0,1
92	612,8	19,6	11	16,5	11,6	6,1	7	0,3	0,2	0,1
100	771,6	24,7	13,9	20,8	14,7	7,7	0	0,4	0,2	0,1
101	2019,4	64,6	36,3	54,5	38,4	20,2	0	1,1	0,6	0,2
104	680,2	21,8	12,2	18,4	12,9	6,8	0	0,4	0,2	0,1
116	49,8	1,6	0,9	1,3	0,9	0,5	0	0	0	0
Jami	346951	11102,4	6245,1	9367,7	6592,1	3469,5	28	194,3	104,1	34,7

Taqdim etilgan ilovada madaniy texnik holati órganilganda butazorlar **11102,4** gektar, kemiruvchilar uyasi **6245,1** gektar, eroziyaga uchragan yerlar **9367,7** gektar, toptalgan yerlar **3469,5** gektar, zararli ósimliklar uchraydigan maydon **104,1** gektar, zaharli ósimliklar uchraydigan maydonlar esa **34,7** gektar ekanligi aniqlandi. Ushbu jadvalda yaylovlarning madaniy texnik holati kóz bilan chamalab olingan.

Jami tuman bóyicha **357487** gektar yaylov yer maydonlarining **10536** gektar (2,7%) yer maydoni turli darajada degredatsiyaga uchragani aniqlandi.

Tuman yaylovlarining tarqalishiga qarab **1** ta poyas, **2** ta yaylov guruhi, **7** ta yaylov tipi va **17** ta yaylov xiliga ajratildi:

Ellikqala tumanida ótkazilgan geobotanik tadqiqotlar natijasi bóyicha yaylov va pichanzorlar tasnifi

№	Obyekt nomi (tuman)	Yaylov va pichanzorlarning														
		Umumiy yer maydoni, ga	maydoni,ga (yaylov)	shundan			osimliklar soni	ozuqabop		hosildorligi, c/ga	ozuqa birligi, c/ga	Ósimliklar bilan qoplanishi, %				
				Yaylov, ga	Degredatsiyaga uchragan maydon,ga	Degredatsiyaga uchragan maydon % da		jami	shundan							
													ozuqabop	zararli, zaharli va chorva mollari yemaydigan		
8	9	10	11	12	13	14	15	16								
1	Buxan-Merey massiv	325470,1	271506,3	264996,3	6510	2,4	2	3	7	3	3	5	2	2,9	1,5	62,7
2	Saribiy massivi	14758	1125,6	1125,6	0	0	2	3	3	1	1	0	2	2,2	1,2	56,1
3	Al-Xorazmiy massivi	5924,8	1620,2	1620,2	0	0	1	1	2	1	1	0	2	2,3	1,2	53,3
4	Boğyob massivi	9260,2	730	730	0	0	1	2	2	1	1	0	2	2,2	1,2	5,3
5	Qirqqizobod massivi	8216,4	49,8	49,8	0	0	2	2	2	1	1	0	2	2,3	1,2	61,2
6	Ellikqal'a massivi	4377	38,7	38,7	0	0	1	1	2	1	1	0	2	2,5	1,3	54
7	Bóston massivi	11359,5	969,8	969,8	0	0	1	1	2	1	1	0	2	2,3	1,2	58,6
8	Qilchinoq massivi	5793,2	803,3	803,3	0	0	1	1	2	1	1	0	2	2,2	1,1	61,7
9	G.Odilov massivi	4285	327,4	327,4	0	0	1	1	2	1	1	0	2	2,5	1,3	60,4
10	Toza Amirobod	6096,3	87,3	87,3	0	0	1	1	1	1	1	0	2	2,9	1,5	60
11	Yangier	7033,5	7,3	7,3	0	0	1	1	1	1	1	0	2	2,7	1,4	58
12	Qirqqizobod	8028,1	699,8	699,8	0	0	1	1	1	3	3	5	2	2,4	1,2	56
13	Órmon xójaligi	124796,5	79521,5	75495,5	4026	5,1	2	4	9	0	0	0	0	2,9	1,5	54

14	Óalaba massivi	1123,5	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0		
15	Dóstlik massivi	4158,8		0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0		
16	Ellikqal'a	1239,1		0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0		
17	Jami	541920	35748 7	34695 1	1053 6	2,9	3	7	7	1	4	3	8	3	2,9	1,5	60, 7

#### **Xulosa**

Yaylovlar chorva mollarini boqish va kópaytirish uchun asosiy manba va vosita hisoblanadi. Shu sababli mavjud yaylovlarni asrash, tanazzulga yuz tutishining oldini olish, yaylov ósimliklarining hosildorligini oshirish lozim. Buning uchun ayrim yaylovlarda chorva mollarining haddan tashqari kóp boqilishining oldini olish maqsadida yilning faqat ikki mavsumida foydalanishni yoki almashlab foydalanishni tashkil qilish kerak bóladi.

#### **Fodalanilgan adabiyotlar:**

1. Ózbekistonning tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar ótkazish bóyicha uslubiy qóllanma (M.I Rózmetov, R.A.Tóraev, O.Ó.Davronov, M.N.Norqulov, I.L.Akramov, B.B.Xakimov, X.K.Baǵbekov, K.M.Xaitova Toshkent 2022y).
2. J.Saparniyazov, M.Ametov. “Qaraqalpaqstanniń tabiiy jaylawların jaqsılaw hám onnan ónimli paydalanıw usılları” Nókis 1993.
3. M.Maxmudov, Q.Haydarov “Yaylovshunoslik” Toshkent-2009.